



## TAMADDUN NURI jurnali

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi  
"Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

### HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

### TAHRIR HAY'ATI:

#### BOSH MUHARRIR:

Munavvara QURBONBOYEVA

#### BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

#### BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xalil Ismayil o'g'lu Ismayilov, t. f.d, prof

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari dokтору,

Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının

(AMEA) müxbir üzvü

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Shohida SODIQOVA, sots.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.f.d., prof.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, fil.f.n, dots (PhD)

Vahob RAHMONOV, f.f.n.,dots

Farrux Abbas o'g'lu Rustamov, p.f.d, prof.

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Anvar ISMOILOV, s.f.f.d., (PhD),k.i.x

G'ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d.

Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafuz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilbar URAZBAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Qosimboy QABULOV, psixol.f.d., (DSc)

Mels QOBULOV, tib.f.d., prof.

### JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

### Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

### Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

**Sahifalovchi-bezovchi:** G'iyosiddin O'NAROV

**Manzilimiz:** Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 6,5.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2024-yil 31-iyulda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2024-yil, 7-son (58).

**Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №23.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar

bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.



Crossref DOI

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

BIZNI IJTIMOY TARMOQLARDA QUIYDAGI MANZILLARDA KUZATING:



### 12.00.00 – “YURIDIK FANLAR”

<b>Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li.</b> Shaxs ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi orqali axborot ulashayotganda nimalarga e'tibor berishi kerak	141
<b>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич.</b> Фуқаролик ҳуқуқида вакилликни турларга бўлиш мезонларининг умумий тавсифи.....	217
<b>Хайитов Оғ'абек Егамберди о'ғ'ли.</b> Yangi O'zbekistonda jinoyatchilikning oldini olishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni.....	241

### 13.00.00 – “PEDAGOGIKA”

<b>Xujaniyozova Oygul Rajabovna.</b> Maktab o'quvchilarning kreativ kompetentlikini shakllantirish mezonlari.....	49
<b>Hamidova Laylo Kamildjonovna.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda metodik tayyorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	59
<b>Begimqulov Zarif Axmadovich.</b> Sport ta'lim muassasalari tarbiyachilarining uzluksiz malakasini oshirish - dolzarb pedagogik muammo sifatida...	69
<b>Sharipova Shaxnoza Xasanovna.</b> Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning rivojlanish tendensiyalari.....	75
<b>Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi.</b> Boshlang'ich sinflarda tutuq belgisini o'rgatish darslariga innovatsion va integratsion yondashuv.....	116
<b>Matyakubova Nuriya Azimbayevna.</b> Xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashga oid ilg'or xorijiy tajribalar tahlili (PIRLS va TIMSS misolida).....	121
<b>Tilavova Minavar Durdiyevna.</b> Pedagogik ta'lim jarayonida talabalar kompozitsion-mantiqiy nutqini rivojlantirish metodikasi.....	125
<b>Yakubbayev Murodilla Marufovich.</b> O'quv materiallarni tanlash va tizimlashtirishning talabalarda lingvomadaniy kompetensiyani oshirishdagi o'rni.....	186
<b>Абубакирова Нодирабегим Рафисовна.</b> Методы формирования самообразовательной компетентности учителей английского языка в Великобритании.....	189
<b>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich.</b> Auditoriya mashg'ulotlarida bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirish usullari.....	204
<b>Yuldoshev Bobir.</b> Refleksiv kompetensiyasini shakllantirishda nazariy yondashuvlar.....	221
<b>Yusupov Rajab Rasul o'g'li.</b> Chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi tushunchasining ilmiy-nazariy tadqiqi.....	224
<b>Tojibayeva Nazokatxon Qobiljonovna.</b> Ayollar tizimida performativ yondashuv orqali hamkorlik kompetentligini rivojlantirishning afzalliklari..	255
<b>Xodjaniyozov Sardor Umarovich, Атамуродова Азиза Султанмуродовна.</b> Talabalar mediakompetentligini rivojlantirishda axborot-resurs markazi pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishning metodik jihatlari.....	285
<b>Tojiboyeva Shoxistaxon Komiljonovna.</b> Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish metodikasi.....	291
<b>Abdunabiye Sunnat Ne'mat o'g'li.</b> Kamil inson tarbiyasida Sayyid Burhoniddin Termiziy ilmiy-didaktik merosining tarbiyaviy ahamiyati.....	310

### 19.00.00 – “PSIXOLOGIYA”

<b>Ishonkulova Norbiye Islamovna.</b> Oilada destruktiv nizolar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	46
<b>Murtazayeva Shaxloxon Muzaffar qizi.</b> Oilaviy muhitda gender tenglikni ta'minlashning yoshlar muomala madaniyatiga ta'siri.....	66
<b>Курбанбаева Муқаддас Козибаетна.</b> Гаджетлар ва уларнинг бола психикасига таъсири.....	302

**KOMIL INSON TARBIYASIDA SAYYID  
BURHONIDDIN TERMIZIY ILMIY-DIDAKTIK  
MEROSINING TARBIYAVIY AHAMIYATI**

*Abdunabiyev Sunnat Ne'mat o'g'li,  
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

**THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF SAYYID  
BURHONIDDIN TERMIZIY'S SCIENTIFIC AND  
DIDACTIC HERITAGE IN THE FORMATION OF A  
PERFECT INDIVIDUAL**



[sunnat.abdunabiyev@gmail.com](mailto:sunnat.abdunabiyev@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0009-5072-3913>

*Abdunabiyev Sunnat Ne'mat ogli,  
Researcher at Termez State Pedagogical Institute*

**ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАУЧНО-  
ДИДАКТИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ САЙИДА  
БУРХАНИДДИНА ТЕРМИЗИЙ В  
ФОРМИРОВАНИИ СОВЕРШЕННОЙ  
ЛИЧНОСТИ**

*Абдунабиев Суннат Неъмат угли,  
Исследователь Термезского государственного педагогического  
института*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada komil inson tarbiyasida Sayyid Burhoniddin Termiziyning ilmiy-didaktik merosining o'rni va ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Unda allomaning inson kamoloti, axloqiy poklanish, ruhiy yetuklik va ma'naviy barkamollik haqidagi qarashlari chuqur yoritiladi. Shuningdek, uning ta'limotida ilm va amal birligi, nafsni tarbiyalash, komil inson konsepsiyasining asosiy tamoyillari ilmiy asosda ochib beriladi. Maqolada ushbu merosning bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni, ularning axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi roli hamda zamonaviy pedagogik jarayonlarda undan samarali foydalanish masalalari tahlil etiladi. Shu bilan birga, alloma qarashlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** komil inson, ma'naviy meros, axloqiy tarbiya, didaktik qarashlar, yoshlar tarbiyasi, ilm va amal birligi, nafs tarbiyasi, shaxs kamoloti, pedagogik meros.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of Sayyid Burhoniddin Termiziy's scientific and didactic heritage in the formation of a perfect individual. It explores his views on moral purification, spiritual development, and human perfection, emphasizing the unity of knowledge and practice as a fundamental principle in his teachings. The study highlights key aspects such as self-discipline, ethical refinement, and the cultivation of inner virtues as essential components of personal development. Furthermore, the article examines the relevance of his ideas in the context of modern globalization, particularly in shaping the moral and spiritual values of the younger generation. It also discusses the pedagogical potential of his legacy in contemporary education systems and its alignment with both national traditions and universal human values.

**Keywords:** perfect individual, spiritual heritage, moral education, didactic principles, youth development, unity of knowledge and practice, self-discipline, personal growth, pedagogical legacy.

**Аннотация:** В данной статье всесторонне рассматривается роль и значение научно-дидактического наследия Сайида Бурханиддина Термизий в формировании совершенной личности. Особое внимание уделяется его духовно-нравственным взглядам, учению о совершенствовании

человека, нравственной чистоте и внутреннем развитии личности. Анализируется принцип единства знания и практики, воспитание души и формирование идеала «совершенного человека» в его учении. В статье также раскрывается влияние данного наследия на воспитание современной молодежи в условиях глобализации, его значение в формировании моральных качеств и духовных ценностей. Подчеркивается актуальность использования идей ученого в современной педагогике, а также их соответствие национальным и общечеловеческим ценностям.

**Ключевые слова:** совершенная личность, духовное наследие, нравственное воспитание, дидактические идеи, воспитание молодежи, единство знания и практики, развитие личности, педагогическое наследие

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Globallashuv va axborotlashuv davrida jamiyat taraqqiyoti inson omili, xususan, ma'nan barkamol va axloqiy jihatdan pok shaxslarni tarbiyalash bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, komil shaxsni rivojlantirish pedagogika, falsafa va boshqa fanlarning dolzarb sohasiga aylanadi. Xususan, milliy-ma'naviy merosimizda aks etgan inson kamolotiga oid qarashlar bugungi yosh avlodni tarbiyalashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Sayyid Burhoniddin Termiziyning ilmiy va didaktik merosi alohida e'tiborga loyiqdir. U o'z asarlarida insonning ichki dunyosini poklash, qalbini tarbiyalash, bilim va harakat uyg'unligi orqali mukammallik darajasiga erishish g'oyasini ilgari suradi. Olimning fikricha, axloqiy poklik, sabr-toqat, halollik va kamtarlik kabi fazilatlar inson kamolotining muhim mezonlari hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida yoshlarni nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy fazilatlar egalari sifatida tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy va ma'naviy merosdan samarali foydalanish, ayniqsa, buyuk mutafakkirlarning didaktik qarashlarini o'rganish va qo'llash juda muhimdir. Sayyid Burhoniddin Termiziy ta'limoti yoshlarni ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini tushunadigan shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiluvchi bebaho manbalardan biridir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Sayyid Burhoniddin Termiziyning ilmiy va didaktik merosini tahlil qilish, uning barkamol shaxsni rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini aniqlash hamda ushbu qarashlarning zamonaviy ta'lim jarayonidagi pedagogik salohiyatini ta'kidlashdan iborat.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Sayyid Burhoniddin Termiziyning hayoti va ilmiy-didaktik

merosi haqida tadqiqotlar turli olimlar tomonidan alohida e'tibor bilan o'rganilgan. Turk olimi Ahmet Sevgi tadqiqotlarida Sayyid Burhoniddin Termiziyning shaxsiyati, uning ilmiy faoliyati va tasavvufiy merosi keng yoritilgan. Muallif ayniqsa Sayyid Burhoniddin Termiziyning Jaloliddin Rumiy bilan bog'liqligi va uning ustoz sifatidagi roli haqida batafsil ma'lumot beradi. Shu nuqtai nazardan, Ahmet Sevgi Sayyid Burhoniddin Termiziyning nafaqat ilm-fan olimi, balki ruhiy va axloqiy yetuk shaxs sifatida talqin qiladi [1].

Mehmet Husrevoglu esa Sayyid Burhoniddin Termiziyning ma'naviy faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Muallif Sayyid Burhoniddin Termiziyning tarbiyaviy yondashuvlarini o'rganish orqali alloma ma'naviy merosining yosh avlod axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi. [2].

Semih Ceyhan esa Sayyid Burhoniddin Termiziyning hayoti va ilmiy faoliyatini tarixiy kontekstda yoritadi. Muallif uning 639/1241-yilda vafot etganini qayd etib, ilmiy va tasavvufiy merosining keyingi avlodlar, jumladan Jaloliddin Rumiy ijodiga bo'lgan ta'sirini batafsil tahlil qiladi. Ceyhan tadqiqotlarida Sayyid Burhoniddin Termiziyning "Maorif" asari, so'fiylar bilan bo'lgan suhbatlari alohida ta'kidlangan [6].

Ushbu adabiyotlar Sayyid Burhoniddin Termiziyning shaxsiyati va pedagogik faoliyatini har tomonlama yoritib beradi. Tadqiqotlar allomani nafaqat ilm-fan va tasavvuf olimi sifatida, balki yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalashdagi muhim ustoz sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, turk olimlarining tadqiqotlari Sayyid Burhoniddin Termiziy merosining bugungi kunda ham pedagogika va axloqshunoslikda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Sayyid Burhoniddin Termiziy keng

tarqalgan «Sayyid Sirdon» (Sirlarni biluvchi Sayyid) nomi bilan mashhur. Bu nom uning odamlarning ichki fikrlarini idrok etish va kelajakdagi voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatidan kelib chiqqan [3]. Rivoyatlarga ko'ra, alloma shogirdi Jaloliddin Rumiya Shams Tabriziyning kelishini bashorat qilgani aytiladi. Uning eng muhim ilmiy asari «Maorif»dir. So'fiylar bilan suhbatlar va chuqur tasavvufiy mulohazalardan iborat bu asar Jaloliddin Rumiyning mashhur «Masnaviy ma'naviy» asarini yaratishda muhim rol o'ynadi [5].

Zamonaviy pedagogik va axloqiy nuqtai nazardan, Sayyid Burhoniddin Termiziyning «Maorif» asari yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega. Uning ta'limotlari yoshlarga nafaqat qanday harakatlarni bajarishlari kerakligini, balki qanchalik fazilatli va yetuk bo'lishlari kerakligini ham ko'rsatadi.

Sayyid Burhoniddin Termiziyning «Maorif» asarida ilgari surilgan ta'limotlarning talaba-yoshlar axloqiy ongining rivojlanishiga ta'siri katta hisoblanadi.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Avvalo, olimning g'oyalari yoshlar orasida samimiylik va ichki intizomni targ'ib qiladi. Bugungi kunda ko'plab yoshlar o'zlarining tashqi ko'rinishiga va boshqalarning fikrlariga haddan tashqari e'tibor berishga odatlangan. Biroq, Sayyid Burhoniddin Termiziyning ta'limotlarida asosiy urg'u «ichki mohiyat»ga qaratilgan. U yoshlarga axloqiy fazilatlarini faqat boshqalarga ko'rsatishni emas, balki ularni hech kim kuzatmagan taqdirda ham saqlanib qoladigan «ichki intizom» sifatida qabul qilishni o'rgatadi [4].

Ikkinchidan, olim yoshlarni bilim va harakat o'rtasidagi uyg'unlikka erishishga undaydi. Sayyid Burhoniddin Termiziyning fikricha, quruq nazariy bilim yetarli emas; olingan bilimlarni amalda qo'llash, ya'ni «vaziyat ilmi» juda muhimdir. Bu orqali u yoshlarda «nima deyish kerak» va «nima qilmaslik kerak» haqida ongli mulohaza yuritishni rivojlantiradi. Olim nazariy va axloqiy bilimlarni amaliy harakatlarga aylantirishni eng muhim mezon deb bilgan. Natijada, u yoshlarda axloqiy izchillik, halollik va mas'uliyat kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, yoshlar shaxsiy rivojlanishda odob-axloqning ahamiyatini chuqur tushunishadi. Olim Rumiya o'rgatgan eng muhim saboqlardan biri bu odob-axloqdir. U: «Odob-axloq - bu o'z chegaralaringizni bilishdir», deydi [6]. Sayyid Burhoniddin Termiziyning odob-axloq haqidagi g'oyalari yoshlarga ijtimoiy vaziyatlarda, oilada va hatto kibermakonda (ijtimoiy tarmoqlarda) hurmatli chegaralarni saqlashga yordam beradi. Shuningdek, u takabburlik va kamtarlikdan qochish hamdardlikni rivojlantirish orqali erishiladigan yuksak fazilatlar ekanligini ko'rsatadi [2].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Umuman aytganda, Sharq ilmiy-ma'naviy merosida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etgan alloma, mutasavvif Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning ilmiy-falsafiy, didaktik merosini tadqiq etish, ushbu bebaho merosda ilgari surilgan, yoshlar ma'naviy kamolotida, axloqiy rivojlanishida muhim hisoblangan umuminsoniy g'oyalarni bugungi tarbiya tizimida qo'llash hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI / (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Ahmet Sevgi. Seyyid Burhaneddin Muhakkik-i Tirmizi (Mevlânâ'nın Hocası). – Kayseri: Erciyes universitesi matbaası, 1995. – S. 13.
2. Mehmet Hüsrevoğlu. Mevlânâ'nın üstad'ı Seyyid Burhâneddin velî. – Kayseri: Kalkan matbaacılık, 2017. –S. 49.
3. Mirzo Kenjabek. Termiz tazkirasi. Buyuk Termiziyar. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 530 b.
4. O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi. –Samarqand. Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2018. – B. 376.
5. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy. Maorif. Tarjimon: Abdulboqi Gulpinarli. – Anqara. 1972. – 212 b.
6. Semih Ceyhan. Seyyid Burhanüddin Hüseyin Muhakkik-ı Tirmizi (ö. 639/1241) / İslam ansiklopedisi, 37-cilt. –İstanbul: Türkiye diyanet vakfi, 2009. –S. 56-57.